

1.Hikoyalardagi shartli qismlar va ular mazmunidagi muammo, epik kechinma, g'oyaviy yo'nalish, tasvirdagi muvofiqlik kabilarni bir-biriga moslash juda qiyin kechadigan jarayondir. Chunki burgut hayoti, turmush tarzi va kurashining mantig'ini bilish yozuvchilardan uzoq yillik kuzatish, bilish va sabr toqatni talab etadi. Biz ko'rgan asarlarda muallif buning uddasidan chiqqan.

2.Dastlab yaratilgan hikoyada burgut obrazi odam va tabiat o'rtasidagi munosabat buzilishi sifatida asarga kirib kelgan bo'lsa, keyingilarida tabiat qonuniyatlari sabab ojiz qolgan burgutni ko'ramiz. Lekin har uchchallasida ham burgut mag'rur, erk, ozodlik uchun kurashuvchi obraz sifatida tasvirlangan.

3.Obrazlarning o'zini tutishi, badiiy asar doirasidagi harakati o'z mohiyatiga ko'ra, dinamikligi va tasvir uchun olingan paytdagi holatidan kelib chiqib cheksiz o'zgaruvchanligi zamirida mualliflarning qat'iy, o'zgarmas g'oyalari, badiiy-estetik qarashlari yotibdi. Badiiylikning ana shunday o'ziga xos qonuniyatlari borki, ulardan biri – bu shaklda o'zgaruvchanlik mazmunda esa o'zgarmaslikdir. Aslida har uchala hikoya ham shakl va mazmun birligi jihatidan o'ziga xos yaxlitlikka, puxtalikka ega.

4.Yozuvchilar doimiy harakatdagi obrazlar, tasvirdagi harakatlar ostiga o'zlarining badiiy-estetik ideallaridan kelib chiqib qat'iy tamoyil, o'zgarmas hayot qonuniyatlarini mohirlik bilan singdirib yuborishgan. Ana shu ziddiyatlar butunligi hikoyalarning badiiy strukturasini mukammal bo'lishini ta'minlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sulton, Izzat. Adabiyot nazariyasi: darslik [Mas'ul miharrir Naim karimov]. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 272 b.
2. Умуров Х. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарк, 2002. – 256 б.
3. Қобул, Нурали. Оқ каптарлар: Ҳикоялар, қиссалар, эссе. –Т.: Ўзбекистон, 1990, - Б.89-91.
4. Хуршид, Дўстмуҳаммад. Беозор кушнинг қарғиши.: Ҳикоялар. –Т.: Шарк, 2006, -Б.107-116.
5. Холмирзаев Ш. Танланган асарлар. III жилдлик. III-жилд: ҳикоялар. -Т.: Шарк, 2009, - Б.5-28.
6. Щепилова Л.В. Введение. в литературоведение. – М. Гос.Уч-ПЕД.ИЗД., 1956. - 224 с.

Abdupattoyev Muhammadtohir Tojimamatovich, filologiya fanlari doktori, professor.

Farg'ona davlat universiteti. ORCID - 0000-0002-3816-8437

Abdupattoyevmuhammadoxir@gmail.com



POETIK NUTQ KOMPOZITSION-SINTAKTIK QURILISHINING FUNKSIONAL IMKONIYATLARI

<https://zenodo.org/records/18724360>

Annotatsiya: Mazkur maqolada poetik sintaksis sohasining muammoli masalalaridan biri hisoblangan poetik nutqning kompozitsion-sintaktik qurilishi va unda aktual bo'linishni o'rganish bo'yicha nazariy qarashlar bayon etilgan. O'zbek poetik sintaksisi doirasida, o'zbek poetik nutqi tadqiqida aktual bo'linish masalasi alohida kategoriya sifatida o'rganish muhim ahamiyatga ega ekanligi jahon tilshunosligi tajribasi asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar iboralar: lingvopoetika, sintaksis, poetik sintaksis, poetik nutq, aktualizatsiya, tema-rema munosabati, eksspressivlik, kommunikatsiya, predikat, subyekt.

FUNCTIONAL CAPABILITIES OF THE COMPOSITIONAL AND SYNTACTIC STRUCTURE OF POETIC SPEECH

Abstract: This article presents theoretical perspectives on the compositional and syntactic structure of poetic speech and the study of its topical division, which is considered a problematic issue in the field of poetic syntax. Within the framework of Uzbek poetic syntax, drawing on the experience of global linguistics, the importance of studying topical division as a separate category in the study of Uzbek poetic speech is emphasized.

Key words and expressions: linguapoetics, syntax, poetic syntax, poetic speech, actualization, relationship of theme and rheme, expressiveness, communication, subject, predicate.

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ КОМПОЗИЦИОННО-СИНТАКСИСИЧЕСКОГО ПОСТРОЕНИЯ ПОЭТИЧЕСКОЙ РЕЧИ

Аннотация: В данной статье представлены теоретические взгляды на композиционно-синтаксическое построение поэтической речи и изучение актуального членения в ней, которое считается одним из проблемных вопросов в области поэтического синтаксиса. В рамках узбекского поэтического синтаксиса, на основе опыта мировой лингвистики, подчеркивается важность изучения вопроса актуального членения как отдельной категории в изучении узбекской поэтической речи.

Ключевые слова и выражения: лингвопоэтика, синтаксис, поэтический синтаксис, поэтическая речь, актуализация, отношения темы и ремы, выразительность, коммуникация, субъект, предикат.

Kirish.

Har qanday poetik nutq tinglovchi bilan uning muallifi o'rtasidagi o'ziga xos dialog demakdir, bu dialogda tinglovchi faqat adresat vazifasini bajaradi. Nutq tahliliga kommunikativ yondashuvda nutq muallifining adresant sifatidagi pozitsiyasi nutqiy imkoniyat va vositalardan qanday foydalana olish mahorati hamda uning bayon qilinayotgan voqelikka bo'lgan munosabati, yetkazilayotgan axborot yoki narsa-hodisa va uning belgilari haqida berilayotgan ma'lumotni qanday usul, vositalar yordamida bayon etishi nutqning kompozitsion-sintaktik qurilishida muhim hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, poetik nutq murakkab va ko'paspektli sintaktik struktura bo'lgani uchun ham, fikr bayon etishning xilma-xil usul va vositalariga ega. Shunga ko'ra, poetik nutq tarkibining kompozitsion-sintaktik shakllanishida turli usul va vositalar qo'llaniladi. Poetik nutq kompozitsion-sintaktik qurilishida aktual bo'linish birliklarining o'rni masalasi sezilarli ahamiyat kasb etadi.

Poetik nutq qismlari o'rtasidagi semantik-cintaktik munosabatlarning yana bir ko'rinishi aktual bo'linish tarzida namoyon bo'ladi va nutqning kompozitsion-sintaktik jihatdan shakllanishda muhim vazifa bajaradi, chunki sintaktik butunliklarda tema va rema munosabati tilshunoslikning semantik kategoriyasi hisoblangan gapning aktual bo'linishi muammosini tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Aktual bo'linish tilshunoslikda dastlab gapga nisbatan tadbiq etilgan. Gapning aktual bo'linish nazariyasini maxsus lingvistik yo'nalish sifatida asoslagan chex olimi V.Mateziusdir [1]. Uning fikricha, gap ikki qismdan iborat bo'lib, fikrning boshlanish nuqtasi – vaziyatdan ma'lum bo'lgan, avvalgi nutqiy vaziyatdan oson anglashilgan qism (tema)dan hamda gapdagi asosiy informatsiyani ifodalovchi kommunikativ markaz – qism (rema)dan tashkil topgan.

Rus tilshunosligida aktual bo'linish masalasi bilan maxsus qiziqqan olim I.P.Raspopovdir [2]. Sintaktik birliklarda aktual bo'linish masalasi o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab, turkolog olimlar diqqatini o'ziga tortdi. Bu o'rinda R.S.Amirov, F.M.Agayeva, K.N.Valiyev kabilarning maqola va yirik tadqiqot ishlarini eslatib o'tish mumkin [3].

O'zbek tilshunosligida gapning aktual bo'linishi muammosini yoritish o'tgan asrning 70-yillariga to'g'ri keladi va ularning yakuniy natijasi sifatida A.Hayitmetovning monografik tadqiqoti yuzaga keldi [4].

Natija va muhokama.

Ma'lumki, sintaktik konstruksiyada aktual bo'linish birliklari sifatida ko'pchilik olimlar gapning ifoda asosi – tema va ifoda yadrosi – remani belgilaydilar. Nutq muallifi va eshituvchi yoki o'quvchi kommunikatsiya mexanizmi tarkibiga kiradi. Tema – mavzu ularning har ikkalasiga ham, ko'pincha, oldindan ma'lum bo'lsa, rema adresant tomonidan uzatiladigan yangi xabar, informatsiya hisoblanadi. Ko'rinadiki, u sintaktik kategoriya sifatida mazmuniy aspektda ham o'rganiladi va poetik nutqning kompozitsion-sintaktik jihatdan shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Inson, ko'pincha, alohida olingan so'zlar bilan emas, mazmunan bir-biriga aloqador bo'lgan, bir-biridan kelib chiqadigan fikr anglatuvchi gaplar yordamida muomalada bo'ladi va yo'l bilan o'zaro fikr almashadi. Shuning uchun ham kommunikativ funksiya bajarishi jihatidan nutq birinchi o'rinda turadi. Demak, nutqning kompozitsion-sintaktik jihatdan shakllanishi aktual bo'linish masalasi bilan bog'liqdir. Nutqda ham aktual bo'linish kuzatiladi: mavzu (tema), nutq predmeti (fikrning nima haqida ekanligi), xabar (rema) esa mavzuning yoritilishi, uning nimadan iborat ekanligidir.

Katta poetik asarlarda mavzu (tema) asarning butun hajmi davomida yoritilib boriladi. Kichik hajmli (she'r, to'rtlik)larda esa tema haqidagi yangi xabar (rema) ana shu kichik hajmning o'zida ma'lum qilinadi.

Bozorga o'xshaydi asli bu dunyo,

Bozorga o'xshaydi bunda ham ma'ni.

Ikkisi ichra ko'rmadim, aslo,

Molim yomon degan biror kimsani.

(A.Oripov)

Mazkur to'rtlikning kompozitsion-sintaktik qurilishida tema – dunyo birinchi qatorda oydinlashmoqda, qolgan satrlar esa rema funksiyasida kelgan, ya'ni dunyo haqidagi muallifning yangi xabarlar – kechinmalari, tuyg'ulari ifoda etilgan. Ko'rinib turganidek, poetik nutq kompozitsion-sintaktik qurilishida tema-rema munosabati qism

(satr)lar o'rtasidagi semantik aloqadorlikni ko'rsatish bilan birga, poetik nutq yaxlitligini ta'minlash, fikrning izchil rivojlanishi va xulosalanishida muhim vazifa bajargan. Bundan tashqari, gaplar (satrlar) o'rtasidagi mustahkam semantik va sintaktik aloqani ta'minlash va hissiy-ta'siriylikni kuchaytirish maqsadida sintaktik figura – takror (Bozorga o'xshaydi birikmasining takroran qo'llanishi), uyadosh so'zlar (bozor, mol) qo'llanilgan.

Ma'lumki, har qanday gap asosida hukm yotadi. Boshqacha qilib aytganda, gap hukm orqali ifoda etiladi. Tilshunos olim A.Nurmonov ta'kidlaganidek, hukm va gap dialektik birlikni tashkil etadi. Odatda, har bir hukmda uch asosiy element: subyekt, predikat va bog'lovchi mavjud bo'ladi [5,72]. Demak, gap semantik jihatdan subyekt, predikat va bog'lovchi munosabatidan tashkil topadi. Bu munosabat gapning har qanday ko'rinishida mavjud ekan, demak nutq temasiga teng keluvchi gaplar asosini ham tashkil qiladi.

Poetik nutq temasiga teng keluvchi gaplarni semantik jihatdan tekshirar ekanmiz, unda mavjud subyektning nutqning tema-rema munosabatida ahamiyatli ekanligini ko'ramiz.

Ma'lumki, subyekt atamasi ostida turli tushunchalar birlashtiriladi, ya'ni predikat ifodalagan turli belgilar egasi sifatida talqin etiladi. Tilshunos olimlarning ta'kidlashlaricha, gap subyeksi grammatik jihatdan ega yoki to'ldiruvchi orqali ifoda qilinadi. Poetik nutq temasiga teng keluvchi gap subyeksi remaga teng keluvchi qator gaplar orqali izohlab, kengaytirib beriladi. Bunda tema subyeksi qanday tushunchani ifodalamasin, remani ifodalovchi gaplar ana shu subyekt bilan bog'liq fikrlarni davom ettiradi, ya'ni kengaytiradi.

To'plab, tahlil etilgan misollar mohiyatidan kelib chiqib, subyekt ma'nolarining quyidagi turlarini ko'rsatib o'tishni lozim, deb topdik.

1. Harakat subyeksi bilan aloqador izoh;

O'qtin-o'qtin g'azab otiga minib,
Vahshat solar telba Qo'qon shamol
Ko'zlaring qisilib, qulog'ing tinib,
Ajrata bilmaysan yerdan samoni.

(Iqbol Mirzo)

Keltirilgan poetik nutq parchasidan anglashiladiki, temaga teng kelgan gap subyeksi (harakat subyeksi) "shamol" va uning harakati rema orqali izohlanyapti. Subyektning borliqqa ta'siri remada keng va atroflicha yoritib berilyapti. Bu bilan ma'lum bir fikrning o'quvchiga tugal yetkazilish imkoniyati vujudga kelyapti. Ma'lum va yangi – tema-rema munosabatining yuqoridagi tarzda namoyon bo'lishida, asosan, subyekt va uning harakati muhim funktsiya bajaradi.

2. Holat subyeksi bilan aloqador izoh:

Moviylik dengizi borliqni ko'mgan
Betimga salqin yel asta urilar.
Nigohim kunduzning bag'riga cho'mgan,
Uzoqdan chinakchi qizlar ko'rinar.
Ko'nglimga quyular sho'x, qichiq yalla;
Osmonday yuksalar orzu va armon.
Oq gullar ochilib yetilgan palla,
Bulutday to'lg'anar kattakon xirmon.

(Usmon Nosir)

Bu poetik nutqning temasi shoirning lahzalik kechinmalari bo'lib, Ko'rinib turganidek, tema subyektiga ko'ra holat subyeksi (statual subyekt)ni tashkil etadi. Rema nutq tarkibidagi birinchi gapning o'zidan boshlangan. Temadagi holat subyektning to'liq xarakteristikasini berish, to'ldirish va izohlash uchun qo'llangan remani tashkil

etuvchi predikativ birliklarda subyekt holatiga asosiy urg'u berilgan. Rema tarkibidagi "ko'mgan", "urilar", "cho'mgan", "ko'rinar", "quyular", "to'lg'anar" kabi fe'l formalari orqali subyekt holati izohlab berilgan. Ma'lumki, subyektning passiv harakatini bildiruvchi fe'l formalari tasvir nutq tipi uchun xos bo'lib ularda harakatdan ko'ra holat ancha ustun turadi. Yuqoridagi nutq parchasida ham shunday holatni kuzatish mumkin.

3. Belgi tashuvchi subyekt bilan aloqador izoh.

Temani ifoda etuvchi gap tarkibidagi subyekt kvalitatif xarakterga ega bo'lgan holatlarda temada asosiy urg'u subyektning belgisiga beriladi. Remani tashkil etuvchi gaplarda ham shu qonuniyat saqlanib qoladi, ya'ni subyekt belgisi izohlash yo'li bilan kengaytirib beriladi:

U ayolning qo'llari dag'al,

U ayolning ko'ylagi dag'al

Uni har kun kaltakla

Har kun yuzda ko'karar dog'lar.

(X.Davron)

Keltirilgan poetik nutqda ham ham yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, rema temadagi kvalitatif subyektning o'ziga xos belgilarini sanab ko'rsatish yo'li bilan izohlash uchun xizmat qiladi. Bunda rema tarkibidagi (asosiy urg'u subyekt belgisini izohlashga qaratilgani uchun ham) belgi ifodalovchi sifat so'z turkumiga xos so'zlar hamda fe'lning sifatdash va ravishdash formalari ko'proq qo'llaniladi. Yuqoridagi misolimizda tema ayol bo'lib, unga xos belgilar remada talqin etilgan.

4. Miqdoriy aniqlovchi subyekt bilan aloqador izoh.

Temadagi miqdoriy aniqlovchi subyekt mavjud bo'lgan va u remada izohlangan poetik nutqda tema subyektning miqdoriy belgisini ko'rsatadi. Remada esa o'sha miqdor izohlanib, asoslanadi. Uni to'ldirish uchun dalillar sanab ko'rsatiladi:

Dunyoda ming yillik xarobalar ko'p,

Urushlardan yodgor, sellardan yodgor.

Mozorlar qalashib yotibdi to'p-to'p,

Aslida ular ham cho'ng xarobazor. (A.Oripov)

Ushbu misoldan ham ko'rinib turganidek, subyektning miqdori (ko'p) rema orqali asoslab, izohlab berilgan. Remada esa miqdor anglatuvchi (to'p-to'p) leksemalarning qo'llanishi ham ma'lum semantik aloqadorlikni ta'minlash bilan birga tema-remamunosabatining o'ziga xos yaxlitligini ko'rsatib turibdi.

5. Egalik subyekti bilan aloqador izoh.

Tema tarkibidagi subyekt posessiv xarakterga ega bo'lgan poetik nutqda subyektning nimagadir ega ekanligi anglashiladi. Remada esa u izohlanadi, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitiladi.

Siz mening osmonim, mohitobimsiz,

Mohitobim emas, oftobimsiz,

Ishonchim, quvonchim, yupanchim, yana

Sog'inchim, o'kinchim, iztirobimsiz.

Siz mening qalbimsiz, qalbidagi she'r,

Bitmoq orzu qilgan bosh kitobimsiz.

Sevgim, umrim, yana umrim davomi,

Baxtim, rohatimsiz va azobimsiz.

(Iqbol Mirzo)

Yuqoridagi poetik nutqdan ko'rinadiki, temadagi subyekt – "men"ning "osmonim, mohitobim, oftobim, ishonchim, quvonchim, yupanchim, sog'inchim,

o'kinchim, iztirobim..." kabilarga ega ekanligi rema tarkibida izohlab berilgan. Shu xususiyatlarga egalikning sabablari oydinlashtirilgan. Rema tarkibidagi aloqadorlik ishorasini bildiruvchi va egalikni ko'rsatuvchi egalik qo'shimchalarining qo'llanilishda davom etishi tema-remasidagi aloqadorlikni ta'minlash bilan birga, temadagi egalik subyektining umumiy xususiyatlarini izohlash, to'ldirish uchun xizmat qiladi.

6. Mavjudlik subyektini bilan aloqador izoh:

Bunday nutq temasida subyektning hozirgi zamon nuqtai nazaridan mavjudligi tasdiqlash yo'li bilan ifoda etiladi va poetik nutq mavzusi mana shu subyekt haqida ekanligi ma'lum qilinadi. Remada mavjudlik subyektining belgi-xususiyatlari izohlash yo'li bilan havola qilinadi.

O'zbeklar azaldan mehmonchi eldir,
Mehmon otangdan ham ulug', deydilar.
Bir kunlik mehmonga bor-yo'g'in qo'yib,
O'zlari ancha vaqt turshak yeydilar. (SH.Rahmon)

Keltirilgan misolda temada o'zbek elining mavjudligi ifoda etilayotgan bo'lsa, rema orqali esa ana shu mavjudlik subyektning belgilari izohi, uning obyektga – tashqi olamga konkret ta'siri haqida qo'shimcha ma'lumotlar o'z aksini topgan.

7. Nutqiy vaziyat subyektini bilan aloqador izoh.

Poetik nutqda subyektning bu ma'no turi kontekst, vaziyat (situatsiya) orqali yuzaga chiqadi. Temani tashkil etgan mazkur subyekt vaziyat bilan bog'liq bo'lgan izohni talab etadi. Situativ subyekt poetik nutqning tema qismida beriladi, uning mohiyati esa temada oydinlashadi.

Ko'k yuzini bulut, chol yuzini g'azab
Asta bosib kela boshladi,
Yetib kelib bulut cholning boshiga,
Uch-to'rt sovuq tomchi tashladi.
G'azablarga to'ldi va ingrandi chol,
Olovlandi xira ko'zlari,
Olovlandi, asabiy bir tusda,
Lablaridan uchda so'zlari... (Uyg'un)

Bu poetik nutq parchasidagi remada temadagi "Ko'k yuzini bulut, chol yuzini g'azab asta bosib kela boshlashi"ni remada izohlanishi uchun nutqiy uchun vaziyat beriladi. Shunday qilib, temaning mazmuni umumiy kontekst situatsiya (vaziyat) bilan aloqadorlikda yuzaga chiqadi. Poetik nutqdagi tema-remasidagi munosabatining bu ko'rinishida temadagi subyektning bu ma'no turi muhim funktsiya bajaradi. Chunki subyekt bilan bog'liq obrazli va ta'sirchan leksemalar bu o'rinda umumiy tema (kontekst) situatsiyani talab etadi. Bu vazifani esa izoh tipidagi rema bajaradi.

8. Qiyoslanuvchi subyektini bilan aloqador izoh.

Subyektning bu ko'rinishi nutq temasi tarkibida kelganda, u nimagadir – boshqa predmet, shaxs va hokazolar bilan qiyoslanadi, temada ifoda etilgan qiyoslash remada yanada kengaytiriladi, izohlanadi.

Sen yaxshisan,
Men yomondirman,
Sen borsanki, men omondirman.
Meni qattol yaratgan hayot,
Seni qilgan ojiz, benajot. (E.Vohidov)

Ko'rinadiki, yuqoridagi poetik nutqda qiyoslanuvchi subyekt sifatida Sen tema tarkibida qatnashyapti. Temada o'z ifodasini topgan qiyoslash nutqning rema qismida ham davom ettirilmogda, ya'ni muallif qarshilantirish usuli orqali ikki shaxs (sen va lirik qahramon)ning belgilarini asoslangan. Temasi qiyoslanuvchi subyektga ega bo'lgan nutqlardagi temani ham, remani ham ifoda etgan gaplarda qiyoslashni yuzaga chiqaruvchi bo'lsa, esa so'zlari hamda qaraganda, nisbatan kabi leksik elementlar ishtirok etishi bilan xarakterlanadi. Bunday poetik nutqlarda shaxs yoki predmetlarning belgilari (belgi keng ma'noda) qiyoslangani uchun ham nutqni tashkil qiluvchi gaplar tarkibida sifat turkumiga oid so'zlar ko'proq qo'llanadi va shu yo'l bilan ko'zlangan maqsadga erishiladi. Yuqoridagi misolda ham qiyoslashni kuchaytirish maqsadida yaxshi, yomon, o'jiz, benajot sifatlari, kun-tun, tiriklik-o'lim antonimlari qatnashgan.

9. To'dalik subyekti bilan aloqador izoh.

Poetik nutq temasidagi to'dalik subyekti o'zining ma'lum bir guruh, to'da yoki sinf, kasbga mansubligiga ishora qiladi. Bunda temadagi subyekt bilan bog'liq predikat muhim o'rin tutadi. A.Nurmonov ko'rsatib o'tganidek, bunday vaqtda predikat predmet turini (klasslarini) ifodalovchi otdan ifodalanadi [5,74]

Poetik nutq remasida esa subyekt qarashli bo'lgan tur yoki sinfning o'ziga xos umumiy xususiyatlari izoh tarzida ifoda etiladi:

Shoirlarga hayron bo'lmang,

Shoir xalqi turfaroq.

Gohi mag'rur, gohi diltang,

Goh hazin, goh tumtaroq. (E.Vohidov)

Keltirilgan misoldan shunday xulosa chiqarish mumkin, poetik nutq temasidagi kvalifikativ subyekt mansub bo'lgan turga xos belgilar kengaytirilib, izohlab beriladi. Yuqoridagi parchaning birinchi gapida tema shoirlar ekanligi anglashilib, remada shu kasb (shoirlik) egalarining umumiy xarakteristikasi berilgan va boshqa shunday belgilari ham borligi izohlab berilgan.

10. Funktsiyalashayotgan subyekt bilan aloqador izoh.

Bunda poetik nutq temasida subyektning asosiy funksiyasi (vazifasi) ko'rsatiladi. Masalan: Kombayn o'radi, yig'adi, yanchadi. O'qituvchi o'quvchilarni tarbiyalaydi, bilim beradi. Sartarosh soch oladi kabi. Remada esa mana shu funktsiya izohlanadi.

Chin aktyor san'at deb, bag'rini tig'lab

Amallab kunini ko'rib yuradi.

Shunday insonlar bor, bir ko'zi yig'lab

Bitta ko'zi esa kulib turadi.

Shunday insonlar bor, voy otam, deya,

Bir zumda o'zgarar turqi, siyog'i.

Lekin o'sha mahal, o'sha soniya

Onasin ko'ksida turar oyog'i. (A.Oripov)

Yuqoridagi fikrlarni keltirilgan poetik nutq parchasi ham tasdiqlab turibdi. Nutq temasidagi funkativ subyekt aktyorlarning asosiy vazifasi (funktsiyasi) berilgan. Remada esa shu funktsiyaning ayrim qirralari kengaytirib berilgan, shu bilan birga, hayotdagi "aktyorlar"ning belgi-xususiyatlari obrazli tarzda ko'rsatib berilgan. Bu bilan poetik nutqda ma'lum emotsional bo'yoqdorlik, mazmuniy ta'siriylikning mavjud bo'lishi ta'minlab turilganini kuzatishimiz mumkin.

11. Idrok qiluvchi subyekt bilan aloqador izoh.

Poetik nutq temasi subyektining bu tipi remada izohlanganda, temadagi subyekt, asosan, idrok qila oluvchi inson yoki ayrim jonzotlarni ifoda etadi. Sezish, bilish, idrok qilish subyektning asosiy subyektiv belgisi sifatida ko'rsatiladi. Poetik nutq remasida xuddi shu sezish, bilish, idrok qilishning natijasi (nimani bilishi) izohlab beriladi:

Ularni bilaman, ular pok bo'lar,
yuragi go'dakday beg'ubor bo'lar,
sezmasdan yashaymiz,
yonginamizda
bu oliy kishilar xoru zor bo'lar. (Sh.Rahmon)

Keltirilgan mazkur misolda ham tema subyekt – lirik qahramonning nimani bilishi va anglashi hissiy-ta'siriy vositalar yordamida remada izohlangan hamda poetik nutqning kompozitsion-sintaktik jihatdan to'g'ri shakllanishini ta'minlagani kuzatiladi.

12. Baholash yoki emotsional munosabatdagi subyekt bilan aloqador izoh:

Bunday hollarda poetik nutq temasi subyektning boshqa bir obyekt, predmet yoki shaxsga nisbatan bo'lgan bahosi, munosabati, ta'siri, ichki his-tuyg'ularini ifoda etadi. M: Men ukamni yaxshi ko'raman. U hammani yoqtiradi kabi. Remada esa bu munosabat izchil rivojlantirilib, uning sabablari izohlanib ochib beriladi.

Zulm qilsam har qachon o'zimga zulm etdim,
Qaramadim sen tomon, ko'zimga zulm etdim.
Imlasang bormadim ham, siltasang ketmadim ham,
Yerdan uzmadim tovon, izimga zulm etdim.
Zulmning lazzatini faqat mazlum biladi,
Baxtiyor kimsalarni ko'rsam rahmim keladi. (Iqbol Mirzo)

Yuqoridagi fikrlarni keltirilgan parchada yanada davom ettirish mumkin. Poetik nutq temasidagi baholash yoki emotsional munosabatdagi subyektning munosabati va bahosi remada asoslab izohlab berilyapti.

13. Qarindoshlik yoki sotsial munosabatdagi subyekt bilan aloqador izoh.

Poetik nutq temasi tarkibidagi subyekt bunday holatda qarindoshlik, sotsial aloqadorlik ma'nolarini ifoda etuvchi ot predikatlar bilan birga qo'llaniladi. Remada esa predikat ifoda etgan shaxs yoki predmetga aloqador belgilar kengaytirilib, u haqida qo'shimcha ma'lumotlar beriladi:

“Ko'ngil” degan so'zga qo'fiya “singil”.
Singlim!
Seni desam isiydi ko'nglim.
Yurak xinaguldek o'ynaydi yengil,
Munisginam, singlim,
anisim, singlim! (Iqbol Mirzo)

Yuqoridagi misolda ham tema (poetik nutq temasi) tarkibidagi qarindoshlik munosabatidagi subyekt singlim bo'lib, remada singil bilan bog'liq tafsilotlar, voqea-hodisalar bayon qilingan. 14. O'rin bildiruvchi subyekt bilan aloqador izoh.

O'rin bildiruvchi subyekt ham poetik nutqda ko'plab uchraydi, chunki mantiqiy jihatdan ham bayon qilinayotgan voqea-hodisa yoki tasvir ma'lum bir makon bilan aloqador bo'ladi:

Egasiz hovliday to'zigan dala,
Daraxtlar juvonday shoshmay cho'milar,

Borliqni qush uyqu elitgan palla,
Ko'ngil tuyg'ularga behad ko'milar. (E.Shukur)

Mazkur misolda lokativ subyekt sifatida dala, to'g'rirog'i, egasiz hovliday to'zigan dala kelgan va poetik nutq kompozitsion-sintaktik qurilishida muhim rol o'ynovchi tema vazifasini bajargan. Remada esa dala tasviri va muallifning dala bilan bog'liq tuyg'ulari, kechinmalari yoritilgan.

Demak, poetik nutq temasida subyektning yuqoridagi ma'nolar sistemasi kuzatiladi. Rema esa, asosan, temadagi subyekt ma'nolarini izohlash bilan reallashadi.

Xulosa.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, poetik nutqda ham xuddi gap ko'rinishlaridagi kabi tema-rema munosabati – aktual bo'linish kuzatiladi. Tema – mavzuning nimadan iborat ekanligi nutqning birinchi gapi yoki shu gapning biror bo'lagi orqali e'lon qilinadi. Rema esa poetik nutqning keyingi qismlarini tashkil etuvchi gaplar (satrlar)dan iborat bo'ladi. Ular o'rtasidagi munosabat poetik nutq kompozitsion-sintaktik strukturasi shakllanishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, poetik nutqda mantiqiy izchillikni va poetik nutqning sintaktik hamda semantik jihatdan yaxlit qurilma sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Матезиус В. О так называемом актуальном членении предложения. “Пражский лингвистический кружок” М., 1967.
2. Распов И.П. Актуальные членения и коммуникативно синтаксические типы повествовательных предложений в русском языке. АДД. М., 1964.
3. Амиров Р.С. Способ актуального членения в казахском языке. «Советская тюркология». 1970. № 6, Агаева Ф.М. Синтаксис азербайджанской разговорной речи. АДД. М., 1979. Валиев К.Н. Семантическое (актуальное) членение предложения в тюркских языках. III. Всесоюз тюрк. Конф (тезисы докладов и сообщений) «Языкознание», Ташкент, 1980.
4. Хайитметов А. Ўзбек тилида гапнинг актуал бўлиниши ва позиция масалалари. Тошкент. “Фан”, 1984.
5. Нурмонов А. Н. Гап ҳақидаги синтактик назариялар (студентлар учун махсус курс). Тошкент. 1988 й. 72-бет.

Dusmatov Xikmatullo Xaitboyevich – filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Farg'ona davlat universiteti. ORCID: 0009-0005-4299-6170 x.dusmatov@pf.fdu.uz
Komilova Shaxrizoda – Farg'ona davlat universiteti stajyor-tadqiqotchisi shahrizodaqahramonova19.09@gmail.com +998999198980
<https://orcid.org/0009-0006-3650-2290>



**O'ZBEK QIZIQCHILARI NUTQIDA HAJVIYLIKNI YUZAGA
KELTIRUVCHI FONOSTILISTIK USUL VA VOSITALAR**

<https://zenodo.org/records/18724367>